

**“ALYANS AUTO” MChJda 2025 yil yakuni bo'yicha korrupsiyaga
qarshi kurashish va komplaens tizimi faoliyati bo'yicha
UMUMIY HISOBOTI.**

I. Komplaens tuzilmasi.

“Alyans Auto” MChJning yagona ishtirokchisi “UzAuto Commercial Vehicles Management” MChJning 12.11.2020 yildagi 2- sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan Yangi tashkiliy tuzilmaga asosan jamiyatda komplaens tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, shtat bo'yicha 2 ta xodim belgilangan. Xozirgi kunda 1 ta xodim vakansiya.

“Alyans Auto” MChJning 2025 yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish va muvofiqlikni ta'minlash sohasidagi asosiy **maqsadlari** quyidagilardan iborat bo'lgan, ya'ni;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish va “komplaens-nazorat” tizimini rivojlantirish maqsadida mas'ul xodimning Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan malaka oshirish kursida ishtirokini ta'minlash.

- Jamiyatda amal qilayotgan sanksiyalar va eksport nazorati siyosati, ishga qabul qilish tartibi, rag'batlantirish nizomi va sovg'a siyosati bo'yicha barcha xodimlarning to'liq va bir xil tarzda tanishtirilishini ta'minlash.

- Jamiyatda korrupsiyaga oid murojaatlar bo'yicha anonim aloqa kanallaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va xodimlarni bu kanallar haqida xabardor qilish.

- Korrupsiyaga moyilligi yuqori bo'lgan xodimlarni “Davlat xizmatida halollikni ta'minlash” mavzusidagi 24 soatlik maxsus o'quv kursidan o'tkazishni ta'minlash.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi **chora- tadbirlar** ishlab chiqilgan, ya'ni ;

- Mas'ul xodimni malaka oshirish kursiga ro'yxatdan o'tkazish, ishtirok etishini tashkil qilish, kurs materiallari va testlarini o'z vaqtida bajarishini ta'minlash va yakunlari bo'yicha olingan bilimlarni jamiyat xodimlariga qisqacha tushuntirish.

- Sanksiyalar, eksport nazorati, ishga qabul qilish tartibi, rag'batlantirish va sovg'a siyosati bo'yicha qisqa o'quv materiallari tayyorlash. Barcha xodimlar uchun onlayn yoki oflayn tanishtiruv o'quvini tashkil qilish, har bir bo'lim rahbarlari orqali xodimlarning tanishganligi to'g'risida ro'yxatni shakllantirish va tushunmagan masalalar bo'yicha xodimlar uchun qisqa savol-javob brifingi o'tkazish.

- Anonim murojaat kanallari (telefon, elektron pochta, veb-forma) bo'yicha yangilangan ma'lumotlarni tayyorlash, xodimlar uchun banner, e'lon va ichki xabarlar orqali kanallar haqida ma'lumot tarqatish, direksiya va bo'lim rahbarlari orqali xodimlarning xabardorligini oshirish va har bir murojaatni belgilangan muddatda ko'rib chiqish va natijalarni qayd etish.

- Korrupsiyaga moyilligi yuqori bo'lgan xodimlar ro'yxatini shakllantirish, ushbu xodimlarni maxsus o'quv kursiga rasmiy tarzda ro'yxatdan o'tkazish, kursda

ishtirok etishi uchun ularning ish jadvalini muvofiqlashtirish, o'quv jarayonida berilgan material va testlarni o'z vaqtida bajarishini ta'minlash, kurs yakunlari bo'yicha sertifikatlarni olish.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarni amalda bajarilib kuyidagi **natija va samaralarga** erishildi.

-Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalar oshirildi va olingan bilimlar jamiyatda mazkur yo'nalishdagi ishlar sifatini yaxshilashga yordam berdi.

- Barcha xodimlar jamiyatda amal qilayotgan siyosat va nizomlar bilan to'liq tanishtirildi, xodimlarda sanksiyalar, eksport nazorati, sovg'a siyosati va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha bir xil tushuncha shakllantirildi, nizomlarga rioya qilish darajasi oshadi va xatolar hamda qonunbuzarliklar kamaydi.

- Xodimlarning anonim kanallar haqidagi xabardorligi oshadi, Murojaatlar soni ortib, mavjud muammolar tezroq aniqlanadi, Korrupsiya xavflarini barvaqt aniqlash imkoniyati kuchaydi.

- Korrupsiyaga moyilligi yuqori bo'lgan xodimlar maxsus o'quv kursini muvaffaqiyatli tamomladi, xodimlarning halollik, mas'uliyat va xavf-xatarni oldindan aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshganligi natijasida jamiyatda korrupsion xavflarni kamaytirish imkoniyati kuchaydi.

II. Siyosat va tartib-taomillar (ichki hujjatlar) bo'yicha

"Alyans Auto" MChJning 2025 yil 8 avgustlagi 11- sonli buyrug'iga asosan, jamiyatning "Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha" Siyosati, "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash" Uslubiyoti, "Manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha" Siyosati, "Aloqa kanallari orqali qoida buzarliklar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish" Reglamenti, "Xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha" Yo'riqnomasi, "Biznes hamkorlarini kompleks tekshirish" Protsedurasi, "Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish" bo'yicha Yo'riqnomasi, "Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish" Uslubiyoti, "Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha" Nizomi, Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish" Protsedurasi "Biznes hamkorlarining odob-axloq" Kodeksi, "Xayriya va tijorat xomiyligi bo'yicha" Siyosati, "Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvishga) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish" Siyosati, "Sanksiyalar va eksport nazorati" Siyosati, "Sovg'alar, mehmondo'stlik, safar va tadbirlarga taklifnomalar to'g'risida"gi Nizomi, "Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomi, "Odob-axloq komissiyasi to'g'risida"gi Nizomi, "Odob-axloq" Qoidalari, "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashda boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish

tartibi to'g'risida"gi Nizomi "Jamiyat xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risi"dagi Nizomi "Komplaens xizmati to'g'risida"gi Nizomi va "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida Nizomi yangi taxrida tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining 05.06.2024 yilda qabul qilingan O'RQ-931-sonli (06.12.2024 yilda kuchga kirgan) "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'g'risida"gi Qonuni hamda amaliyotda biznes xamkorlarni tekshirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, xizmat tekshiruvini amalga oshirish va ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish jarayonlarini to'laroq amalga oshirish maqsadida komplaens nazoratiga oid bir qator mavjud hujjatlarga jamiyatning 24.12.2025 yildagi 20-sonli buyrug'iga binoan tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan:

- "Alyans Auto" MChJning manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha siyosati va uni qo'llash tartibi;

- "Alyans Auto" MChJning sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlari bo'yicha siyosati hamda uni qo'llash tartibi;

- "Alyans Auto" MChJning xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha siyosati hamda uni qo'llash tartibi;

- "Alyans Auto" MChJning biznes hamkorlar va uchinchi tomonlarni kompleks tekshirish siyosati hamda uni qo'llash tartibi;

- "Alyans Auto" MChJning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;

- "Alyans Auto" MChJning xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom;

- "Alyans Auto" MChJning ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish bo'yicha yo'riqnomasi qabul qilingan.

III. Xavf-xatarlarni baholash

"Alyans Auto" MChJ tomonidan yuridik bo'lim, axborot xavfsizligi va texnologiyalar bo'limi, moliyaviy-xo'jalik bo'limi, marketing, savdo va sotuvdan keyingi xizmatlar ko'rsatish direksiyasi, xarid va ta'minot tizimi bo'yicha direksiya, xodimlarni boshqarish direksiyasi hamda iqtisodiyot va moliya bo'yicha direksiyalar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlil qilinib, uning natijalariga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati hamda korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ("Yo'l xaritasi") platformaga joylashtirildi.

Jamiyatda 2025 yilda baholangan jarayonlar soni 32 tani tashkil etib, ulardan aniqlangan xavflar darajasiga ko'ra: yuqori - 0 ta, o'rta - 6 ta va past - 26 tani tashkil etdi.

Baholash natijalariga ko'ra o'rta xavfli jarayonlar esa quyidagilardan iborat bo'lgan:

Ma'muriy xo'jalik bo'limi - Jamiyatda amalga oshiriladigan qurilish, ta'mirlash ishlarida sifat ko'rsatkichlariga e'tiborsiz bo'lishi oqibatida korrupsion xavf yuzaga kelishi extimoli mavjud bo'lgan.

Marketing, savdo va sotuvdan keyingi xizmatlar ko'rsatish direksiyasi- Sotuvga chiqarilgan avtomoshinalarni dillerlarga o'z manfaatlarini ko'zlab taqsimlash bilan bog'lik korrupsion xavf-xatarlarni kelishi extimoli mavjud xamda xaridorlardan reklamatsiya bo'yicha kelib tushgan murojatlarni o'z manfaatlarini ko'zlagan xolda xujjatlarni rasmiylashtirish, byudjetdan chetga chiqish, atayin zarurati yo'q va samarasiz reklama dasturini ilgari surish.

Xarid va ta'minot tizimi bo'yicha direksiya- xarid jarayonlarida kontragentlarni to'lik o'rganmasligi natijasida manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishi xamda elektron platformalar orkali xarid qilingan tovarlarni yetkazib berilmaganni uchun jarimasiz bitimlarni platformada yopish, tovar va ish xizmatlarni qabul kilish jarayonida texnik shartlarga muvofiqligini tekshirish, garovga berilgan tovar moddiy boyliklarini xujjatsiz berish yoki talon taroj qilish natijasida korrupsion xavf yuzaga kelishi extimoli mavjud.

Xodimlarni boshqarish bo'yicha direksiya- Nomzodlarni ishga qabul qilishda , xodimlarni lavozimdan lavozimga o'tkazishda qarindosh urug'chilikka asoslanish yoki soxaga oid ichki me'yoriy xujjatlar talablarini to'liq bajarmaslik oqibatida korrupsion xavflar yuzaga kelish extimoli mavjud

Iqtisodiyot va marketing bo'yicha direksiyasi- Mansab xarakatsizligi va jamiyatning bo'limlari tomonidan oylik va yilli xisobotlarni taqdim qilishda o'zlarining manfaatlariga moslab tuzish bilan bog'liq korrupsion xavf-xatarlar yuzaga kelish extimoli mavju. Shuningdek, jamiyat xodimlariga ish xaqlari va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni xisoblash jarayonida xaqiqatda ishlamagan, ishda bo'lmagan xodimlarga ish xaqlari xisoblash yo'li bilan o'zlashtirishda korrupsion xavflar yuzaga kelishi extimoli mavjud.

Shu bilan birga, muddati o'tgan debitor qarzдорlik to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi taraf manfaatlari yo'lida yashirish oqibatida korrupsion xavf yuzaga kelishi extimoli mavju.

Kamaytirish tadbirlari ijrosi: "Alyans Auto" MChJ bosh direktori tomonidan 2025 yilga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 10 ta banddan iborat

holda tasdiqlangan. Mazkur dastur belgilangan amalga oshirish mexanizmlari asosida, ijro uchun mas'ul xodimlar tomonidan belgilangan muddatlarda bajarilgan.

Shuningdek, baholash natijasida aniqlangan o'rta xavfli jarayonlar bo'yicha xavflarni kamaytirish maqsadida jamiyat tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi ichki hujjatlar asosida 2025 yil davomida har chorakda jamiyat xodimlari uchun o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi.

Shu bilan birga, jamiyatning 17 nafar xodimi 2025 yil iyul oyida o'tkazilgan, davlat xizmatchilari uchun mo'ljallangan "Davlat xizmatida halollikni ta'minlash" mavzusidagi 24 soatlik maxsus o'quv kursida ishtirok etib, tegishli sertifikatlarga ega bo'ldi.

Jamiyatning vakolatli shaxslari tomonidan qaror qabul qilish jarayonlarining ochiqligini ta'minlash maqsadida qarorlar tegishli bo'limlarning boshqa xodimlari ishtirokida qabul qilinishi yo'lga qo'yildi.

Jamiyat tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga muvofiq, **2024 yilda** baholangan jarayonlar soni 51 tani tashkil etgan. 2025 yilda esa baholash zarurati bo'lmagan jarayonlar qisqartirilib, jami 32 ta jarayon baholandi. Natijada, 2024 yilga nisbatan baholangan jarayonlar soni 19 taga kamaydi.

Shuningdek, 2024 yilda yuqori xavfli jarayonlar soni 7 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda yuqori xavfli jarayonlar aniqlanmadi.

O'rta xavfli jarayonlar soni 2024 yilda 1 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda yuqori xavfli jarayonlar bartaraf etilib, ularning o'rta xavf toifasiga o'tkazilishi natijasida ushbu ko'rsatkich 6 tani tashkil etdi. Shu tariqa, 2024 yilga nisbatan o'rta xavfli jarayonlar soni 5 taga oshdi.

Past xavflar deb baholangan jarayonlar 2024 yilda 43 tani tashkil qilgan bo'lib, baholash zarurati bo'lmagan jarayonlar kamaytirilganligi sababli 2025 yilda 26 tani tashkil etgan.

Jamiyat tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi ichki hujjatlar asosida jamiyat xodimlari uchun 2024 yil davomida har oyda o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi hamda ushbu amaliyot 2025 yilda har chorakda davom ettirildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar:

1. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.

Jamiyatda 2025 yil boshlanishi holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 30 nafar xodim, shuningdek, 2025 yil davomida ishga qabul qilingan 26 nafar yangi xodim

tomonidan manfaatlar to'qnashuviga oid deklaratsiyalar to'ldirilib, jamiyatning Xodimlarni boshqarish direksiyasiga belgilangan tartibda taqdim etildi.

Taqdim etilgan deklaratsiyalarni o'rganib chiqish natijalariga ko'ra, jamiyatning Odob-axloq komissiyasi bayonnomasi asosida 5 nafar xodimga aloqador yuridik shaxslar bo'yicha holatlar "ahamiyatsiz" darajadagi ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi sifatida baholandi.

2.Korrupsiyaga qarshi qoidalarini tashkilot shartnomalariga kiritish:

"Alyans Auto" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2025 yil 8 avgustdagi 11-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Biznes hamkorlarni kompleks tekshirish protsedurasi"ning 1.6-bandiga muvofiq, mazkur protsedura yuridik shaxs Kompaniyaga (Jamiyatga) tegishli yoki Kompaniya nazorati ostida bo'lgan taqdirda, rasmiy maxsus axborot portali (maydoncha) orqali amalga oshirilishi sharti bilan elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklidagi xaridlar, yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan xaridlar hamda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinishi holatlariga nisbatan tatbiq etilmasligi nazarda tutilgan.

Jamiyat tomonidan elektron do'kon orqali hamda boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkazilgan xaridlar bo'yicha tuzilgan barcha shartnomalarda korrupsiyaga qarshi shartlar nazarda tutilgan.

Hisobot yili davomida kontragentlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalar bekor qilingan holatlar qayd etilmadi.

3.Kontragentlarni tekshirish.

Jamiyat tomonidan tasdiqlangan "Biznes hamkorlarni kompleks tekshirish protsedurasi"ga muvofiq ravishda 3 ta korxonadan kompleks tekshirish anketalari olinib, ular o'rganib chiqildi hamda natijasi bo'yicha skrining hisobotlari tuzildi.

Shuningdek, "Alyans Auto" MChJ tomonidan logistika xarajatlari, kanselyariya tovarlari, xizmat avtomashinalari uchun ehtiyot qismlar va boshqa tovarlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq elektron do'konlar orqali shartnomalar tuzildi.

4.Ishga qabul qilish uchun nomzodlarni tekshirish.

“Alyans Auto” MChJga 2025 yil davomida ishga qabul qilish uchun jami 78 nafar nomzod tomonidan tegishli hujjatlar taqdim etilgan bo‘lib, ular jamiyatning xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi hamda komplaens xizmati bo‘yicha bosh mutaxassis tomonidan tekshirildi.

Tekshiruvlar natijalariga ko‘ra bayonnomalar rasmiylashtirilib, 26 nafar nomzod bo‘yicha ijobiy xulosalar berildi.

Ijobiy xulosalar berilgan va ishga qabul qilingan xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgan holda mehnat shartnomalari tuzildi.

Jamiyatga 2025 yil davomida ishga qabul qilingan 26 nafar xodim bilan mehnat shartnomalari rasmiylashtirilib, ularga to‘liq korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritildi.

Ma’lumot uchun: 2024 yilda 27 nafar nomzod tekshirilgan bo‘lsa, 2025 yilda ishga qabul qilish jarayonida ishtirok etgan 78 nafar nomzod tekshirildi.

V. O‘qitish va kommunikatsiya

1. O‘qitish rejasini tahlili.

Jamiyatda 2025 yilga tasdiqlangan umumiy o‘qitish rejasiga muvofiq, har chorakda jamiyat tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi 4 ta siyosat va nizom bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, yil davomida mazkur o‘quv ishlari to‘liq amalga oshirildi. O‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlari yakunlari bo‘yicha tegishli bayonnomalar va o‘quv varaqlari rasmiylashtirildi.

Jumladan: jamiyat tomonidan qabul qilingan “Sanksiyalar va eksport nazorati” siyosati, “Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi, “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi va “Jamiyat xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi bo‘yicha jamiyatning barcha xodimlari ishtirokida o‘qishlar o‘tkazildi. O‘tkazilgan o‘qish yakunlari bo‘yicha bayonnomalar rasmiylashtirilib, o‘quv varaqlarini har bir xodim shaxsiy imzosi tasdiqlashgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va “komplaens-nazorat” tizimidagi mas’ul xodim O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan 2024 yil dekabr - 2025 yil yanvar oylarida tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish

bo'yicha samarali idoraviy chora-tadbirlar tashkil etilishini ta'minlash" mavzusidagi malaka oshirish kursida qatnashib sertifikat olgan.

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish va "komplaens-nazorat" tizimidagi mas'ul xodim - komplaens xizmati bo'yicha bosh mutaxassis hamda Jamiyatning 17 nafar xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi va O'zbekiston Respublikasi Xuquqni Muxofoza Qilish Akademiyasi tomonidan 2025 iyul oyida o'tkazilgan "Davlat Xizmatida Xalollikni ta'minlash mavzusidagi 24 soatlik maxsus o'quv kurslarida qatnashib, yakuni bo'yicha sertifikatlar olishgan.

2. Kommunikatsiya va targ'ibot:

"Alyans Auto" MChJ bosh direktori tomonidan "Xalq so'zi" gazetasida 2025 yil 25 dekabrda Komplaens tizimi - qonun ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizm mavzusidagi maqolasi e'lon qilindi.

Ushbu maqolada, rahbar tomonidan jamiyatda komplaens nazorati joriy qilinishining asoslari, Komplaens tizimi nimaligi va komplaens - faqat nazorat emasligi to'g'risida ma'lumotlarni ko'rsatib o'tgan.

Shuningdek, maqolada jamiyat xodimlari uchun muntazam o'quv seminarlari, tushuntirish ishlari tashkil etilganligi va anonim murojaatlar uchun ishonch telefoni, maxsus elektron pochta manzili va ichki portal orqali xabar qoldirish imkoniyati yaratilganligi, barcha murojaatlar maxfiy ravishda ko'rib chiqish tizimi mavjudligini takidlagan.

"Alyans Auto" MChJ bosh direktorining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati jamiyat xodimlariga 11.12.2025 yilda bo'lib o'tgan hay'at majlisi bayonnomasiga asosan yetkazilgan bo'lib, mazkur yig'ilishda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish holatlari ko'rib chiqildi.

"Alyans Auto" MChJ targ'ibot ishlari 2024 yilda bir marta radio orqali bajarilgan bo'lib, 2025 yil hisobot davrida bir marta gazeta orqali amal oshirilgan.

BMT tashabbusi bilan har yili 9 dekabrda Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan, "Alyans Auto" MChJda 2025 yil 12 dekabr kuni Mirobod tuman Adliya bo'limi bosh yuriskonsulti U. Ramazanov va jamiyatning barcha xodimlar ishtirokida "Ochiq eshiklar kuni" uchrashuv o'tkazilgan. Tadbirda uchrashuv qatnashchilariga Prezident Shavkat Mirziyoev huzurida 2025 yil 10 dekabr kuni o'tgan yig'ilishda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari taqdimot va sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish klasterini yo'lga qo'yish va korrupsiyaga qarshi kurashish, komplaens nazoratini takomillashtirish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar taqdimoti bilan tanishtirilgan. Shuningdek, uchrashuv qatnashchilari bilan mazkur soxa yo'nalishida o'zlarini qiziqtirgan sovalarga to'liq javoblar olishgan.

VI. Korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar.

“Alyans Auto” MChJning aloqa kanallari quyidagilardan iborat:

-www.alyansauto.uz veb-sayti.

-71-202-44-43 ishonch telefoni.

-compliance@alyansauto.uz elektron pochta.

-“@alyansauto_compliance_bot” telegramm meccenjeri

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jamiyatning aloqa kanallari orqali 2025 yil davomida Korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumot va xabarlar kelib tushmagan. Jamiyatga 2025 yil davomida jami 214 ta murojaatlar kelib tushgan, shundan korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan. Ushbu murojaatlar jamiyatdagi murojaatlar bilan ishlashga mas'ul xodim - Ma'muriy-xo'jalik bo'limi ish yuritish bo'yicha katta inspektori tomonidan jamiyat rahbariyatiga taqdim etilgan va tegishli tartibda ko'rib chiqilgan.

VII. Monitoring va nazorat.

Jamiyatda 2025 yil davomida komplaens yoki davlat organlari tashabbusi bilan tadbirlar o'tkazilmagan.

Komplaens xizmati bosh mutaxassisi tomonidan jamiyatning yo'nalishlar bo'yicha mas'ul xodimlari bilan uch nafar biznes hamkorlardan olingan ma'lumotlar o'rganib chiqilgan va ijobiy xulosalar berilgan.

Shuningdek, jamiyatning xodimlarni boshqarish direksiyasi tomonidan xodimlarga intizomiy jazo berilishi yuzasidan to'rt marta o'rganish o'tkazilgan bo'lib, o'rganishlar natijasiga ko'ra korrupsiyaviy holatlar buzilishi bo'yicha intizomiy jazo qo'llanilganligi holatlari aniqlanmagan.

Jamiyatning bosh buxgalteri bilan 2025 yil davomida ikki marotaba hisob-raqamidan pul mablag'larini aylanmasi bo'yicha o'rganishlar o'tkazilgan.

Xamda, 2025 yil davomida jamiyat bosh xisobchisi bilan jamiyat xodimlari tomonidan amalga oshirilgan xizmat safari xarajatlari bo'yicha 2 marotaba o'rganishlar amalga oshirilgan.

Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqib, 2025 yilda jami o'tkazilgan 9 ta monitoring natijalariga ko'ra xato va kamchiliklar hamda jamiyat faoliyatiga moliyaviy ta'sir qiluvchi holatlar aniqlanmagan.

Jamiyatda 2025 yil davomida 9 ta, 2024 yilda esa 6 ta o'rganish ishlari o'tkazilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlarga muvofiq 2025 yilda monitoring ishlari 2024 yilga nisbatan 3 taga ko'p amalga oshirilgan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

Xizmat tekshiruvlari bo'yicha. Jamiyatda xizmat tekshiruvlari o'tkazish holatlari yuzaga kelmaganligi hamda aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy holatlar hamda boshqa qoida buzarliklar bo'yicha xabarlar kelib tushmaganligi sababli, xizmat tekshiruvlari o'tkazilmagan.

Xizmat tekshiruvi natijalari bo'yicha. Xizmat tekshiruvlari o'tkazilmaganligi sababli ta'sir choralari qo'llanilgan holatlar mavjud emas hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga materiallar yuborilmadi.

IX. Xulosalar.

Xavflarni umumiy tahlili.

Jamiyat tomonidan 2025 yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqilgan hamda korrupsiya xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirilgan va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ishlab chiqilib jamiyat bosh direktori tomonidan tasdiqlangan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasida qayd qilingan xavflarni kamaytirish borasida, yil davomida barcha xodimlarni jamiyatda qabul qilingan ichki hujjatlar asosida o'qitish ishlari amalga oshirildi.

"Alyans Auto" MChJ bosh direktorining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati jamiyat xodimlariga 11.12.2025 yilda bo'lib o'tgan hay'at majlisi bayonnomasiga asosan yetkazilgan bo'lib, mazkur yig'ilishda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish holatlari ko'rib chiqildi.

"Alyans Auto" MChJ bosh direktori tomonidan "Xalq so'zi" gazetasida 2025 yil 25 dekabrda Komplaens tizimi - qonun ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizm mavzusidagi maqolasi e'lon qilindi.

BMT tashabbusi bilan har yili 9 dekabrda Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan, "Alyans Auto" MChJda 2025 yil 12 dekabr kuni Mirobod tuman Adliya bo'limi bosh yuriskonsulti va jamiyatning barcha xodimlar ishtirokida "Ochiq eshiklar kuni" uchrashuv o'tkazilgan.

O'qishlar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida ishtirok etganligi va

yig'ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilanligi jamiyat xodimlariga yetkazildi.

Shuning bilan bir qatorda, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilishi yuzasidan doimiy nazorat yuritildi.

Komplaens xizmati tomonidan o'z vazifasini bajarish borasida, korrupsiyaga qarshi kurash qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, jamiyat tomonidan qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga amal qilib kelinmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.

Jamiyat tomonidan yil davomida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari va amaliyotdan kelib chiqqan holda, **2026 yilda** quyidagi ustuvor takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-Moliya va iqtisodiy sohada xavflarni oldini olish maqsadida xarajatlarni amalga oshirish jarayonida parallel ravishda olib borilayotgan nazoratni kuchaytirish.

-Jamiyat xodimlarini "Kaskad" usuli ta'lim jarayonini maxsus onlayn (yoki ichki elektron) "Modul" platforma asosida o'qitishni, trening va seminarlarni tashkil etish hamda profilaktika tadbirlarini amalga oshirish.


-Jamiyatda 2025 yilda baholash jarayonlarida aniqlangan 6 ta o'rta darajadagi xavflarni kelgusida past darajaga tushirish maqsadida quyidagi ustuvor chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

-Komplaensga oid siyosatlar hukumat qarorlari talablariga muvofiq xamda xalqaro standartlar, eng yaxshi amaliyotlar va mahalliy qonunchilik talablariga moslashtirish orqali takomillashtirish.

-Xavfi yuqori sohalarda ichki audit o'tkazish va tezkor tuzatish choralarini ko'rish.

- Jamiyatga faoliyatiga ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablarini to'liq joriy etish, uning ijrosini ta'minlash va boshqalardan iborat.

**Komplaens xizmati
boshlig'i**



N.Karadjanov